


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60910600 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil «21» avgust dagi 316 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1.	Kasbiy kompetensiya toifalari.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	16
2.3.	60910600-Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi	16
2.4.	Kvalifikatsiya	17
	Biblografik ma'lumotlar	18
	Kelishuv varag'i	19

1. Umumiy tavsifi

60910600 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60910600 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60910600 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida o'tkir va surunkali kasalliklarning tarqalishini oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullari, milliy protokollardan hamda dalillarga asoslangan tibbiyotdan keng foydalangan holda bemorlarni sog'lomlashtirish bo'yicha asosiy muammolarni hal qilish, raqamli texnologiyalardan, jumladan, elektron tibbiy qaydlar va teletibbiyotdan samarali foydalanish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

turli mulkchilik shaklidagi davolash-profilaktika muassasalari (oilaviy poliklinikalar va ularning filiallari, ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlar, qariyalar pansionati, tez tibbiy yordam stansiyalari va h.k.);

sog’liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog’liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me’yoriy hujjatlar, ma’lumotnomalar, hisobotlar;

tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

ilmiy-tadqiqot jarayoni;

“valeologiya” tibbiy ixtisosligi bo’yicha sog’liqni saqlash tizimining birlamchi muassasalarida (oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalari, markaziy ko’p tarmoqli tibbiyot birlashmalari) tibbiy faoliyatni amalga oshirish jarayoni;

o’z yo’nalishi bo’yicha o’rta mahsus kasb-hunar ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatini yuritish jarayoni.

yo’nalish bo’yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob’ektlarida qo’shimcha va o’zgarishlar bo’lishi mumkin.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- tibbiy-profilaktika;
- tashxislash;
- rehabilitatsiya;
- ilmiy-tadqiqot;
- tibbiy-ijtimoiy;
- pedagogik

1.2.4. Kasbiy vazifalari

60910600 – Oliy hamshiralik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

nizolarni, stressni va hamshiralik xizmatlari ishini tashkil etishda innovatsiyalarni boshqarish uchun psixologiya bilimlaridan foydalangan holda samarali muloqot usullarini qo’llashga qodir va tayyor bo’lish;

sog’liqni saqlash sohasida qabul qilingan me’yoriy va ma’muriy hujjatlar (O’zbekiston Respublikasi qonunlari, texnik reglamentlar, xalqaro va milliy standartlar, buyruqlar, tavsiyalar, terminologiya, xalqaro birlik tizimlari (SI), joriy xalqaro tasniflar va boshqalar) bilan ishlashga qodir va ulardan foydalanishga tayyor bo’lish;

tibbiy-profilaktika birlashmalarida tibbiy yozuvlar va hisobotlarni, ish jarayoniga oid yozishmalarini (eslatmalar, hisobotlar, xatlar va boshqalar) yuritishga tayyor bo’lish;

sog’liqni saqlash muassasalariga ishga qabul qilingan hamshira mutaxassislariga ko’rsatmalar berishga, ularni mehnat majburiyatlari, mehnatni

muhofaza qilish qoidalari, ichki tartib qoidalari va boshqa rasmiy hujjatlar bilan tanishtirishga tayyor bo'lishi kerak;

sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida boshqarishga tayyor bo'lish;

marketing tadqiqotlari usullaridan foydalangan holda dori vositalari, bog'lov materiallari, tibbiy asboblari va boshqa tibbiy vositalarining tovar tahlilini o'tkaza olish;

sog'liqni saqlash muassasalarida tibbiy, sanitariya-gigiyena va sanitariya-epidemiologiya rejimiga qo'yiladigan talablarga rioya qilishni tashkil etish;

Tibbiy-profilaktika faoliyatida:

aholi salomatligini mustahkamlash va saqlash bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida sog'liqni saqlash muassasalarining turli bo'limlari darajasida aholi salomatligi ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tibbiy-statistik tahlil qilishning zamonaviy ijtimoiy-gigiyenik usullarini qo'llashga tayyor bo'lish;

sog'lom oila va uning a'zolariga hamshiralik parvarishini ko'rsatishga, ularga shaxsiy gigiyena, mehnat va dam olishni oqilona tashkil etish shuningdek sog'lom ovqatlanish masalalari bo'yicha tavsiyalar bera olishiga ega bo'lishi kerak;

biriktirilgan aholi orasida keng tarqalgan yuqumli, parazitar va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini, aholini emlashning namunaviy tartiblarini amalga oshirish;

shifokor bilan birgalikda aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga tayyor bo'lish;

epidemiya qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish, ayniqsa xavfli infeksiyalar o'choqlarida radiatsiyaviy vaziyat yomonlashganda va tabiiy ofatlarda aholini himoya qila olishga tayyor bo'lish.

Tashxislash faoliyatida:

bemorlarga tashxis qo'yish jarayonida faol ishtirok etish;

bemorlarni instrumental tekshiruviga tayyorlash;

bemorlarni laborator tekshiruv uchun biomateriallar yig'ish;

bemorni subyektiv va obyektiv tekshirishga tayyorlash;

tekshiruvlar asosida hamshiralik tashxisini qo'yish;

bemorlarning dolzarb va potensial muammolarini aniqlash;

bemorning tibbiy ehtiyojlarini aniqlash;

bemorning parvarish rejasini ishlab chiqish va samaradorlikni baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Reabilitatsiya faoliyatida:

tananing eng keng tarqalgan patologik holatlari va jarohatlari bo'lgan bemorlarga turli xil reabilitatsiya choralari (tibbiy, ijtimoiy va professional) qo'llash;

bemorning fiziologik, psixologik va ijtimoiy salomatligini tiklashga yordam beradigan, uning tanasining potensial imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalangan holda faoliyatni amalga oshirish;

bemorga o'z-o'zini parvarish qilish usullarini o'rgatish, morfofunktsional holatiga qarab jismoniy faoliyatning optimal rejimini tavsiya qila oladigan,

shifobaxsh jismoniy terapiya, fizioterapiya va dori-darmonsiz terapiya qoidalarini o'rgatish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

dalillarga asoslangan tibbiyotga asoslangan tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish va ommaga taqdim etishga qodir va tayyor bo'lish;

hamshiralikda ilmiy tadqiqotlarini rejalashtirish va o'tkazishga tayyor bo'lish;

aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan hamshiralik tadqiqotining yangi usullari va yondoshuvlarini joriy etishga qodir bo'lish;

bemorlarni parvarishi bo'yicha ilmiy texnik ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil etish va tizimlashtirishda ishtirok etish;

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:

bemorlarni ruhiy ijtimoiy qo'llab quvvatlash choralari qo'llash;

oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va xavf omillarini bartaraf qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik faoliyatida:

professional ta'lim muassasalarida hamshiralik ishi fanlari bo'yicha o'quv faoliyatini olib borish;

hamshiralik ishi fanlarini o'qitish uchun didaktik materialni uslubiy tahlil qilish, o'quv maqsadlarini shakllantirish, o'quv jarayonini belgilangan kasbiy vazifalarga muvofiq tashkil etish va o'tkazishga tayyor bo'lish;

hamshiralik va kichik tibbiyot xodimlarini davolash profilaktik muassasalari sharoitida sanitariya-gigiyena qoidalari, axloqiy va deontologik tamoyillarga o'rgatish qobiliyatiga ega bo'lish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar:

2.1. Kasbiy kompetensiyalar ro'yxati quyidagi kompetensiya toifalari asosida shakllantriladi:

Tibbiy bilimlar;

Amaliy ko'nikmalar va klinik fikrlash;

Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya;

Etika va empatiya;

Oliy hamshiralik ishi mutaxassisining shaxsiy rivojlanishi;

Uzluksiz kasbiy rivojlanish;

Jamoat salomatligini saqlash.

Kompetensiya toifalari	Kod	Kompetensiya
Tibbiy bilimlar (TB) Tibbiy bilimlarni egallash	TB.1	Odam organizmining tuzilishi va funktsiyalari, normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (barcha yosh toifalari).
	TB.2	bemorda hamshiralik baholash ishlarini olib borish.
	TB.3	Organizm struktur-funksional o'zgarishlari asosida kasalliklarning xavf omillari, salomatlik

		determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish.
	TB.4	Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish
	TB.5	Dalillarga asoslangan tibbiyot doirasida davolash tamoyillarini bilish
	TB.6	Tanlangan terapiyaning maqsadli asoslarini bilish
	TB.7	Klinik protokollar va tavsiyalar asosida muolajalarga ko’rsatma va qarshi ko’rsatkichlarini bilish
	TB.8	Kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish
	TB.9	Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sog’lom ovqatlanish, jismoniy faollik, cheki shva semizlik bilan kurashish va b.) va aholiga sog’lom hayot tarzi haqida ma’lumot berishni bilish
	TB.10	Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o’zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar)
Amaliy ko’nikmalar va klinik fikrlash (AK)	AK.1	Hamshiralik tashxisini qo’yish va uning ustuvorligini aniqlash;
Bemorlarni olib borishda amaliy va diagnostik ko’nikmalarni namoyon qilish	AK.2	Muolajalar tamoyilini tushuntira olish
	AK.3	Kasalliklarning qiyosiy tashxisini o’tkazish
	AK.4	Hamshiralik jarayonini mustaqil ravishda besh bosqichini bajarish
	AK.5	muolajalarning to’g’ri bajarilish algoritmiga rioya qilish
	AK.6	muolajalarni mustaqil bajarish uchun yetarli tajribaga ega bo’lish
	AK.7	hamshiralik parvarishi natijalari ma’lumotlarini hamda muolaja natijalarini sharhlay olish
	AK.8	o’quv dasturlarini tuza olishi va amaliy faoliyatda qo’llay olish
	AK.9	turli yoshdagi odamlar uchun tibbiyotning ixtisoslashgan yo’nalishlarida hamshiralik jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va samaradorligini baholash
	AK.10	shifokorgacha bo’lgan ambulatoriya qabullarini o’tkazish va bemorlarni patronaj qilish
	AK.11	inyeksiya va laboratoriya tekshiruvlari uchun bemordan biomateriallar yig’ish va olish
	AK.12	shifokorning tavsiyasiga muvofiq dori vositalarini tarqatish
	AK.13	kasalliklarning oldini olish va sog’lom tumush tarzini targ’ib etish usullarini tatbiq etish
	AK.14	bemorlarning tibbiy ko’rikka tayyorlashda hamshiraning funksional majburiyatlari
	AK.15	kasalxona ichki infeksiyasiga qarshi kurashish chora tadbirlarini ishlab chiqish
	AK.16	hamshiralik jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish

	AK.17	sog'liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish
	AK.18	shifoxonada xavfsizlik muhitini tashkil qilish
	AK.19	yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish chora tadbirlarini amalga oshirish
	AK.20	tibbiy hujjatlarini rasmiylashtirish
	AK.21	jamoada orasida, bemorlar o'rtasida, aholi orasida kasbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish
	AK.22	dalillarga asoslangan tibbiyotning keng qamrovli prinsiplariga, dalillarga asoslangan hamshiralik amaliyotiga asoslangan tibbiy ma'lumotlarni taxlil qilishda tizimli yondoshish
	AK.23	bemorni individual ehtiyojlari va muammolarini hisobga olgan holda bemorga malakali umumiy va maxsus hamshiralik yordamini tashkil etish
	AK.24	bemorga o'z o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish
	AK.25	mustaqil ravishda bemorga hamshiralik modellaridan foydalanib, parvarish usullarini qo'llash
	AK.26	uyda tibbiy xizmat ko'rsatish va patronaj sumkasini hozirlash tamoillariga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
"Oilaviy shifokor assistenti" yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi amaliy ko'nikmalari		<p>1. Sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida parvarishni ta'minlash: individual yondashish va xavf omillarini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish; profilaktik parvarishni ta'minlash; parvarish va muolajalarni o'tkazish; ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash; biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqot qilish.</p> <p>2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan xavf guruhlarini aniqlash va tibbiy yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish): tibbiy va ahloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, oilaviy tibbiyotni rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash; olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash; kasbiy faoliyatda ilmiy ahborotdan foydalanish.</p> <p>3. Oilaviy shifokorlik sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish: ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharhi, izlanishni olib borish, baxolash, natijalar); sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiq etish, samaradorligini baholash.</p>
"Valeologiya" yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi amaliy		<p>1. Sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida kasalliklarni oldini olishni ta'minlash: individual yondashish va xavf omillarini hisobga olgan</p>

ko'nikmalari	<p>holda profilaktik yordam ko'rsatish; profilaktik parvarishni ta'minlash; sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish; to'g'ri ovqatlanishni targ'ibot qilish; jismoniy tarbiya va sport omillarini targ'ibot qilish; ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash; biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqat qilish.</p> <p>2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan havf omillarini, profilaktik chora-tadbirlarini aniqlash va tibbiy yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish) : tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, valeologiya bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash; olingan ilmiy ahborotning ahamiyatini baholash; kasbiy faoliyatda ilmiy ahborotdan foydalanish.</p> <p>3. Valeologiya sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish: ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baxolash, natijalar); sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baholash.</p>
"Akusherlik" yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi amaliy ko'nikmalari	<p>1. Fertil yoshdagi ayollarga kompleks parvarishni ta'minlash: individual yondoshish va xavf omillarini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish; profilaktik parvarishni ta'minlash; parvarish va muolajalarni o'tkazish; ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta'minlash; biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqat qilish.</p> <p>2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan akusherlik yordamni amalga oshirish (ma'lumotlarni yig'ish, tanlash, foydalanish) : tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, akusherlik ishini rivojlantirish bo'yicha so'ngi ma'lumotlarni to'plash; olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash; kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.</p> <p>3. Akusherlik sohasida o'tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish: ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baxolash, natijalar); sifat va sonli ilmiy izlanishlar o'tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baholash.</p>

<p>“Anesteziologiya va reanimatsiya” yo’nalishi bo’yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi amaliy ko’nikmalari</p>	<p>1.Reanimatsionn bemorlarga kompleks parvarishni ta’minlash: individual yondoshish va xavf omillarini hisobga olgan holda yordam ko’rsatish; profilaktik parvarishni ta’minlash; parvarish va muolajalarni o’tkazish; ruhiy-ijtimoiy parvarishni ta’minlash; biologik, ruhiy-ijtimoiy, madaniy va ma’naviy omillarni hisobga olgan holda bemor bilan muloqat qilish.</p> <p>2. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan intensiv yordamni amalga oshirish (ma’lumotlarni yig’ish, tanlash, foydalanish) : tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini hisobga olgan holda, anesteziologiya va reanimatsiyani rivojlantirish bo’yicha so’ngi ma’lumotlarni to’plash; olingan ilmiy ahborotning ahamiyatini baholash; kasbiy faoliyatda ilmiy ahborotdan foydalanish.</p> <p>3. Anesteziologiya va reanimatsiya sohasida o’tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish: ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baxolash, natijalar); sifat va sonli ilmiy izlanishlar o’tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiiq etish, samaradorligini baholash.</p>
<p>“Xirurgiya” yo’nalishi bo’yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi amaliy ko’nikmalari</p>	<p>1. Xirurgik bemorlarga kompleks parvarishni amalga oshirish: o’tkazilgan jarrohlikni hisobga olgan holda hamshiralik parvarish taktikasini tanlash va amalga oshirish; xirurgik bemorlarga profilaktik yordam ko’rsatish; xirurgik patologiyasi bo’lgan bemorlarga maslaxat va ahborot berish; xirurgik operatsiyalarni o’tkazishda qatnashish; -xirurgik patologiyasi bo’lgan bemorlarga ruhiy-ijtimoiy yordam ko’rsatish.</p> <p>2. Sog’liqni saqlash tizimining birlamchi bo’g’inida xirurgik patologiyasi bo’lgan bemorlarga hamshiralik parvarishni tashkil etish va amalga oshirish: mavjud ijtimoiy xizmatlar asosida jarrohlik kasalliklarni hamshiralik parvarishni muvofiqlashtirish; boshqa tibbiy mutaxassilar bilan birgalikda faoliyatni olib borish; jarrohlik hamshirasini faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish; shoshilinch jarrohlik yordamni tashkillashtirish va amalga oshirish; tibbiy hujjatlarni to’ldirish; xirurgik bemorlarga sifatli tibbiy yordam ko’rsatish bo’yicha bilimlarni doimiy yaxshilash.</p> <p>3. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan jarrohlik hamshiralik</p>

	<p>yordamni amalga oshirish (ma’lumotlarni yig’ish, tanlash, foydalanish) :</p> <p>tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini xisobga olgan holda, jarroxlik hamshiralik parvarishini rivojlantirish bo’yicha so’ngi ma’lumotlarni to’plash; olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash; kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.</p> <p>4. Xirurgiya sohasida o’tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:</p> <p>ilmiy izlanishlar plan-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);</p> <p>sifat va sonli ilmiy izlanishlar o’tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiq etish.</p>
<p>“Radiologiya bo’limi hamshirasi” yo’nalishi bo’yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi amaliy ko’nikmalari</p>	<p>1. Radiologiya bo’limida bemorlarga kompleks parvarishni amalga oshirish:</p> <p>o’tkazilgan radiologok tekshiruvlar va davolash muolajalarni hisobga olgan holda hamshiralik parvarish taktikasini tanlash va amalga oshirish; radiologiya bo’limi bemorlariga profilaktik yordam ko’rsatish;</p> <p>radiologiya bo’limi bemorlariga maslaxat va axborot berish;</p> <p>tekshiruvlar va muolajalar o’tkazishda qatnashish;</p> <p>radiologiya bo’limi bemorlariga ruhiy-ijtimoiy yordam ko’rsatish.</p> <p>2. Radiologiya bo’limi bemorlarga hamshiralik parvarishni tashkil etish va amalga oshirish:</p> <p>mavjud ijtimoiy xizmatlar asosida hamshiralik parvarishni muvofiqlashtirish;</p> <p>boshqa tibbiy mutaxassilar bilan birgalikda faoliyatni olib borish;</p> <p>radiologiya bo’limi hamshirasini faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish;</p> <p>tibbiy hujjatlarni to’ldirish;</p> <p>radiologiya bo’limi bemorlariga sifatli tibbiy yordam ko’rsatish bo’yicha bilimlarni doimiy yaxshilash.</p> <p>3. Ilmiy tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan hamshiralik yordamni amalga oshirish (ma’lumotlarni yig’ish, tanlash, foydalanish) :</p> <p>tibbiy va axloqiy muammolarni va xavf omillarini xisobga olgan holda, jarroxlik hamshiralik parvarishini rivojlantirish bo’yicha so’ngi ma’lumotlarni to’plash; olingan ilmiy axborotning ahamiyatini baholash; kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish.</p> <p>4. Radiologiya sohasida o’tkazilayotgan ilmiy izlanishlarda qatnashish:</p> <p>ilmiy izlanishlar reja-kartasini tuzish (dolzarblik, adabiyot sharxi, izlanishni olib borish, baholash, natijalar);</p> <p>sifat va sonli ilmiy izlanishlar o’tkazishda qatnashish, natijalarni baholash, amaliyotga tadbiq etish</p>

<p>“Hamshiralik ishini boshqarish” yo'nalishi bo'yicha Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi amaliy ko'nikmalari</p>	<p>1. Hamshiralik personalni boshqarish va tibbiy muassasa faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha boshqarish qarorlarni ishlab chiqish: o'z faoliyatini ilmiy izlanishlar asosida tashkil etish, uning kasbiy faoliyati sohasida foydalaniladigan axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlash uchun kompyuter usullarini egallash; boshqaruvning mohiyatini, sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, me'yoriy va ma'muriy hujjatlar bilan ishlash va sog'liqni saqlash sohasidagi professional funktsiyalarni amalga oshirish uchun iqtisodiy va huquqiy bilim asoslarini qo'llash; muassasaning parvarishi xizmatining potensial rivojlanishi va ishlashini tahlil qilish, tashkilotda o'zgarishlarning zarurligini aniqlash, innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha harakat rejasini ishlab chiqish; kelajakdagi kasbining tabiati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, sog'liqni saqlash va parvarishning asosiy muammolari, ularning alqoasi va ijtimoiy siyosatning boshqa sohalari bilan o'zaro bog'liqligi; kasbiy funktsiyalarni bajarish bilan bog'liq vazifalarni belgilash va vazifalarni belgilash, ularni hal etish uchun o'rganilayotgan fanlarning usullarini qo'llash; parvarishlash tizimida tashkilot faoliyatining tahlili, uning cheklanishi va salohiyatini aniqlash, samaradorlikni oshirish dasturini ishlab chiqish, mavjud resurslarni hisobga olgan holda va uni amalga oshirishni ta'minlash;</p> <p>2. Ish joyida ijtimoiy-psixologik tartibga solishni amalga oshirish; hamkasblar bilan muloqot qilish va jamoada ishlashga, ijrochilarning ishini tashkil etishga, tashkilotning ishchi kuchiga bog'liq boshqaruv qarorlarini topishga va boshqarishga tayyor bo'lish; tashkilotlarda nizolarni, stresslarni va innovatsiyalarni boshqarish uchun psixologiya bilimi bilan foydalanadigan tashkilotlarda samarali muloqot usullarini qo'llash;</p> <p>3. Aholi salomatligini ahvolini tahlil qilish; aholi salomatligini ahvoli va tibbiy, tibbiy-ijtimoiy va sog'liqni saqlashga bo'lgan ehtiyojini tahlil qilish usullarini qo'llash, ularni kasbiy muammolarni yechishda foydalanish; bemorga tibbiy va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishning samaradorligini baholash uchun bemorning sog'lig'i aniqlash metodologiyasi, malakali parvarish qilish va ularning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ma'lumotlarni yig'ish va baholash usullarini qo'llash; sog'lom turmush tarzi haqida ilmiy tushuncha mavjud, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish usullari, jismoniy</p>
--	---

		<p>o'zini o'zi yaxshilash ko'nikmalarini qo'llash; profilaktika, sog'liqni saqlash choralarini tashkil etish va o'tkazish; favqulotda vaziyatlarning diagnostikasi, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha choralar tashkil etish va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish; 4. Hamshiralik sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar tashkil etish va o'tkazish. axborot bilan mustaqil ishlash (o'quv, informatsion, me'yoriy, ilmiy); kasbiy faoliyatda ilmiy axborotdan foydalanish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolar va jarayonlarni ilmiy tahlil qilish; Onalik va bolalikni muhofazalash bo'yicha tadqiqotlar olib borishda sog'liqni saqlash ahvolini tahlil qilishning statistik, ijtimoiy, gigiyenik, epidemiologik usullaridan foydalanish; aholi sog'lig'ini baholashda aholiga nisbatan parvarish qilish sifatini baholashda sifat va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlarni olib borish; dalillarga asoslangan tibbiyot asosida olingan natijalarni baholash, olingan natijalarni tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarish, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar berish va samaradorlikni baholash bo'icha ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p>
<p>Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (ShM) Bemorlar, oila, hamkasblar va jamoa a'zolari bilan samarali muloqot</p>	ShM.1	Profilaktika, diagnostika va davolash maqsadlariga erishish uchun bemorga yo'naltirilgan samarali muloqot va shaxslararo muloqot ko'nikmalaridan foydalanishni va namoyish etish.
	ShM.2	Etika me'yorlariga rioya qilgan holda bemorlar va ularning yaqinlariga qo'yilgan tashxis va davolash rejasini aniq tushuntirish
	ShM.3	Bemorlar va ularning oilalariga ma'lumot berish, maslahat berish va o'rgatish
	ShM.4	Jamoadi, hamkasblar bilan, boshqa yo'nalishdagi mutaxassislar bilan muloqot qilganda SHM ko'nikmalarini qo'llash
	ShM.5	Bemorlarni davolashda ishni optimallashtirish va qaror qabul qilish uchun raqamli teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish
<p>Etika va empatiya (EE) Bemorlar va aholi bilan o'zaro munosabatlarning axloqiy tamoyillariga, empatiyaga yo'naltirilgan aholiga xizmat ko'rsatish amaliyoti</p>	EE.1	Jinsi, yoshi, millati, madaniyati, dini, nogironligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqalardan qat'i nazar, teng, xolis munosabatni va hurmatni namoyish etish
	EE.2	Insonparvarlik, empatiya, hamdardlik, sezgirlik va bemorlar va ularning qonuniy vakillariga nisbatan halollik ko'rsatish.
	EE.3	Mustaqillik, maxfiylik, adolat, tenglik va xabardor qilingan rozilikka oid axloqiy tamoyillarga sodiqlikni namoyish qilish.
	EE.4	Bemorning shaxsiy manfaatlaridan ustun bo'lgan ehtiyojlari va ehtiyojlari uchun mas'uliyat ko'rsatish.

Shaxsiy rivojlanish (ShR) Tibbiy amaliyot uchun muhim bo'lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarning namoyon qilish	ShR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o'zining funktsional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish.
	ShR.2	Qarorlarni qabul qilishda hamkasblarda ishonch xissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish
	ShR.3	Odob-ahloq me'yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o'z imidji ustida ishlash qv nizoli holatlarni boshqara olish.
Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) Uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga tarafdorlik va qobiliyatni namoyon etish	UKR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida o'z bilimi, klinik ko'nikmalarini yangilab borish.
	UKR.2	Shaxsiy ehtiyojga ko'ra malakasini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish uchun maqsad va strategiyalarni ishlab chiqish
	UKR.3	O'z bilimi va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borish
	UKR.4	Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun xalqaro ilmiy, dalillarga asoslangan bazani, ilmiy tadqiqot natijalarini topish, baholash va qo'llash
	UKR.5	Axborot resurslarida ishlash, yangi bilimlarni tahlil qilish va kasalliklarni tashxislash, davolash, oldini olish protokollari hamda SOM (standart operatsion muolajalar) protokollarini o'z amaliyotiga joriy etish. Dalillarga asoslangan texnologiyalar yoki xizmatlarni tatbiq qilish
Jamoat salomatligi (JS) Bemorlar va aholiga optimal xizmatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimi va sog'liqni saqlashni tashkil etish to'g'risidagi bilimlarni namoyish etish	JS.1	Sog'liqqa ta'sir qiluvchi omillarni, shu jumladan tarkibiy va ijtimoiy determinantlarni, aholi o'rtasida kasalliklar, asoratlar va nogironlikning oldini olishni aniqlash va tegishli vazirlik va idoralarni xabardor qilish.
	JS.2	Sog'liq muammolarini, xavf omillarini, davolash strategiyasini va profilaktika choralarini aniqlash uchun epidemiologiya va biotibbiyot statistikasi tamoyillarini bilish.
	JS.3.	Sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni parvarish qilishni muvofiqlashtirish uchun multidisiplinar jamoada ishlash.
	JS.4	Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli va jamoaviy yondashuvdan foydalangan holda klinik amaliyotni doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirok etish.
	JS.5	Bemorlarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik choralarini ko'rish.
	JS.6	Bemorlarga va/yoki aholiga parvarish va xizmat ko'rsatishda moliyaviy va resurs xarajatlarini hisobga olish hamda xavf va foyda nisbatini tahlil qilish.
	JS.7	Profilaktik tadbirlarni integratsiya qilish, kasalliklar haqida ma'lumot berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish
	JS.8	Sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimlari (shu jumladan, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi, kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi) bilan ishlashni bilish.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar:

Talabalarni kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko’nikmalarni egallashi mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o’zlashtirish, amaliyotlarni o’tish hamda boshqa o’quv mashg’ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi;

Oliy hamshiralik ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha o’quv rejasidagi majburiy fanlar blokiga bevosita kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan zarur tayanch bilim va ko’nikmalarni ta’minlaydigan fanlar;

tanlov fanlari blokiga ta’lim yo’nalishi doirasida mutaxassislikdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan qo’shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek talabalaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondoshuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar kiritiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. O’quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

2.3. 60910600-Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6360	212	
1.01	O’EYT1204	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	F1404	Falsafa	120	4	4
1.03	D1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O’RTO‘TSQ TXT11206	O’zbek/rus tili. O’zbek tilining sohada qo’llanilishi. Tibbiyotda xorijiy til	180	6	1-2
1.05	A1206	Anatomiya 1,2	180	6	1-2
1.06	F1204	Fiziologiya	120	4	2
1.07	TB1104	Tibbiy biologiya	120	4	1
1.08	TKB1206	Tibbiy kimyo. Biokimyo	180	6	1-2
1.09	LTVTT1103	Lotin tili va tibbiy terminologiya	90	3	1
1.10	TATTVBF11 05	Tibbiyotda axborot texnologiyalari. Tibbiy va biologik fizika.	150	5	1
1.11	MVI1204	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	120	4	2
1.12	HI1208	Hamshiralik ishi 1,2	240	8	1-2
1.13	P1306	Patologiya	180	6	3

1.14	SSEHAKTF XA1306	Sog'liqni saqlash etikasi. Hamshiralik amaliyotida kommunikastiya. Tibbiy faoliyatning huquqiy asoslari	180	6	3
1.15	F1303	Farmakologiya	90	3	3
1.16	INKE1304	Infektsion nazorat Klinik epidemiologiya	120	4	3
1.17	GVEV1304	Gigiena va ekologiya. Valeologiya	120	4	3
1.18	THI1406	Terapiyada hamshiralik ishi	180	6	4
1.19	GHI1404	Gerontologiyada hamshiralik ishi	120	4	5
1.20	ND1403	Nutristiologiya (Dietologiya)	90	3	7
1.21	HIB1403	Hamshiralik ishida boshqarish	90	3	7
1.22	TP1303	Tibbiy psixologiya	90	3	3
1.23	AKHI1406	Asab kasalliklarda hamshiralik ishi	180	6	4
1.24	YKHI1505	Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi	150	5	5
1.25	XVHDXHI15 05	Xirurgiya va harbiy dala xirurgiyasida hamshiralik ishi	150	5	5
1.26	PVNHI1504	Psixiatriya va narkologiyada hamshiralik ishi	120	4	4
1.27	TTYFV1506	Tez tibbiy yordam. Favqulotda vaziyatlar	180	6	5
1.28	PHI1506	Pediatryada hamshiralik ishi	180	6	5
1.29	NHI1605	Neonatologiyada hamshiralik ishi	150	5	6
1.30	RK1604	Reabilitologiya. Kineziologiya	120	4	6
1.31	OHI1604	Onkologiyada hamshiralik ishi	120	4	6
1.32	EHI1604	Endokrinologiyada hamshiralik ishi	120	4	6
1.33	AVGHI1605	Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi	150	5	6
1.34	JHI160	Jamoadam hamshiralik ishi	120	4	6
1.35	PPKPKPKT M1706	Pedagogika va psixologiya. Kasbiy psixologiya. Kasbiy pedagogika. Kasbiy ta'lim metodikasi	240	8	1,4
1.36	TRHI1706	Tibbiy radiologiyada hamshiralik ishi	180	6	7
1.37	OTHI1706	Oila tibbiyotida hamshiralik ishi	180	6	7
1.38	DAT1704	Dalillarga asoslangan tibbiyot	120	4	7
1.39	KF1704	Klinik farmakologiya	120	4	7
1.40	MM1826	Mutaxassislik moduli*	780	26	8
2.00	TF2	Tanlov fanlar	360	12	
2.00		<i>Tanlov fanlar (4 ta fan)</i>	240	8	3,4,5,6,8
		Jami	6720	224	
		Malakaviy amaliyot	480	16	1-7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		HAMMASI	7200	240	

Kvalifikatsiya: Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:

Oliy hamshiralik ishi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o’quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o’qib-o’rganish natijalari, sog’liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko’nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, Oliy ma’lumotli hamshira, hamshiralik ishida boshqaruv, hamshiralik jarayoni, hamshiralik tashxisi.

**Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari
hamda kadrlar este’molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
“Sog’liqni saqlash” ta’lim sohasi bo’yicha
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,**

Rektor _____ **Sh.Boymuradov**
2025-yil “ _____ ”



M.O:

KELISHILGAN:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**



Direktor _____ **A.Xoliqov**

2025-yil “ _____ ”

M.O:

**O‘zbekiston Respublikasi
Sog’liqni saqlash vazirligi**



Vazir _____ **E.Basitxonova**
o‘rinbosari _____

2025-yil “ _____ ”

M.O:

**O‘zbekiston Respublikasi Sog’liqni
saqlash vazirligi
Fan-ta’lim va innovatsiyalar
boshqarmasi**



Boshliq _____ **O‘.Ismailov**

2025-yil “ _____ ”

M.O:

**Toshkent shahar sog’liqni saqlash
bosh boshqarmasi**



Boshliq _____ **B.Isabekov/**

2025-yil “ _____ ”

M.O: